



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 04 | pp. 158-164 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

SUG'URTA TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Azamatova G.I.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada sug'urta tashkilotlarining iqtisodiyotning yetakchi sohalaridan biri ekanligi hamda ularning buxgalteriya hisobini to'g'ri yo'lga qo'yish boshqaruv sohasida ham muhimligi, ularning hisobi tashkil qilishda sug'urta faoliyatining xususiyatlari hisobga olinishiga ahamiyat qaratilishi kerakligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: sug'urta, buxgalteriya hisobi, xarajat, daromad, MHXS, BHXS.

Annotation. This article emphasizes that insurance organizations are one of the leading

Annotation. This article emphasizes that insurance organizations are one of the leading sectors of the economy and that their proper accounting is also important in the field of management, and that when organizing their accounting, attention should be paid to taking into account the characteristics of insurance activities.

Key words: insurance, accounting, cost, income, IFRS, IAS.

Аннотация. В данной статье подчеркивается, что страховые организации являются одним из ведущих секторов экономики, и что их надлежащий учет также важен в сфере управления, а при организации их учета следует уделять внимание учету особенностей страховой деятельности.

Ключевые слова: страхование, бухгалтерский учет, себестоимость, доход, МСФО

Kirish

Zamonaviy bozor iqtisodiyotini rivojlanish sharoitida sug'urta tashkilotlarining ahamiyatini oshirish ustuvor vazifalar sirasiga kiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha qabul qilingan Harakatlar Strategiyasining 3.1-bandi makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qolishga bag'ishlangan bo'lib, unda asosiy e'tibor sug'urta, lizing va moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek, kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirishga qaratilgan[1]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida tashqi savdo, moliya, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash sohalarida islohotlar o'tkazilishi belgilab berilgan hamda ijtimoiy sug'urta rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan. Sug'urta sohasi haqida o'rganish uning huquqiy asosini bilishdan boshlanadi. Sug'urta faoliyatida

2002 yil 28 mayda O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunning joriy qilinishi sohaning huquqiy poydevoriga asos soldi. Mazkur qonunning yangi tahriri 2021 yil 25 fevralda amaliyotga qo'llanila boshlandi. Markur qonunga ko'ra, sug'urta-muayyan voqea (hodisa) yuz berganda yetkazilgan zararning o'rnini qoplash, tovonlar va boshqa to'lovlar to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan, jismoniy va yurudik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga doir munosabatlar [2].

O'zbekistonda sug'urta bozorini rivojlantirish borasida islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Yana moliyaviy va sug'urta xizmatlarining yapli ichki mahsulotdagi ulushi yillar davomida o'sib brogan. Jumladan, 2023 yil 1-yarim yilligi sug'urta mukofotlarining yalpi ichki mahsulotdagi hajmi 0,81 foizni tashkil etgan [15]. Yuqorida keltirilgan raqamlarni taqqoslab shunday xulosaga kelish mumkinki, O'zbekistonda sug'urta bozorining holatiga ijobiy baho berib bo'lmaydi. Uni yaxshilash chorasi sifatida esa sug'urta bozorining ishtirokchilari bo'lmish sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligiga erishish va ularni milliy chegaralardan olib chiqib xalqaro sug'urta bozorlaridagi ishtirokini ta'minlash deb bilish mumkin. Demak, asosiy urg'u sug'urta tashkilotlariga tushar ekan, ularning moliyaviy sog'lomligi va to'lovga layoqatligini ta'minlash masalasini negizida ularning buxgalteriya hisobini to'g'ri va qonuniy yuritish muhim masalasi yuzaga chiqadi.

Adabiyotlar tahlili

Sug'urta tashkilotlarining samarali faoliyat yuritishida ahamiyatga ega bo'lgan va oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilishda buxgalteriya hisobi ma'lumotlari axborot manbasi bo'lib xizmat qiladi. Sug'urta tashkilotlarining buxgalteriya hisobiga ta'rif beriladigan bo'lsa, unga quyidagicha tariflash o'rinli: "buxgalteriya hisobi barcha xo'jalik operatsiyalarini yaxlit, uzluksiz, hujjatlar asosida hisobga olish yo'li bilan buxgalteriya axborotini yig'ish, qayd etish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidan, shuningdek uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotni tuzishdan iboratdir" [3].

Ochilov I. boshchiligidagi olimlarning fikriga ko'ra, barcha tashkilotlardagi singari su'gurta tashkilotida ham buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi foydalanuvchilarni o'z vaqtida to'liq hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axboroti bilan ta'minlash hisoblanadi [5].

Xolbekov R.ning fikricha, "buxgalteriya hisobining ma'lumotlari ayrim korxonalar, tashkilot va muassasalar hamda ma'lum bir kompaniya tarkibiga kiradigan korxonalar guruhi bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularning ishini audit qilish uchun audit manbayi sifatida xizmat qiladi" [6].

Shuningdek, Temirov F. sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobida yangicha yondashishni, ya'ni uni tashkil etishda qonunchilikda belgilangan qoidalardan chiqmagan holda sug'urta tashkilotlarining o'z xususiyatlarini hisobga olishni tavsiya etadilar [7].

O'zbekiston Respublikasi sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishda me'yoriy-huquqiy hujjatlar doirasida tashkil etilishi shart. Shu jihatni inobatga olib, barcha qonunchilik va qonun osti hujjatlarini quyidagicha pog'onalarga ajratish mumkin:

1-pog'onali hujjatlar	Qonunlar	Soliq kodeksi
		Fuqarolik kodeksi
		“Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonun
		“Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi Qonun
	BHMS	21-BHMSdan o'rniga, “Sug'urtalovchilar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schotlari rejasi” 1813-sonli nizom
	MHXS	Barchasi
2-pog'onali hujjatlar	Qonun osti hujjatlar	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-4611-son
		Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi 54-sonli Nizom
		Sug'urtalovchilar tomonidan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi 3549-sonli Nizom
		Sug'urta zaxiralari to'g'risidagi 1882-sonli Nizom.
		Sug'urtalovchilarning moliyaviy hisobot shakllarini va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalarni tasdiqlash to'g'risidagi 37-sonli Moliya vazirining buyrug'i
3-pog'onali hujjatlar	Ichki hujjatlar	Hisob siyosati va ichki normativ hujjatlar

Yuqoridagi fikrlarini inobatga olgan holda sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi bu-sug'urta tashkilotning xo'jalik faoliyati bilan boshqaruvchi organini bog'lovchi bog'in bo'lib, sug'urta tashkilotida sug'urta jarayonlari haqidagi ma'lumotlarni batafsil, uzluksiz va hujjatlashtirish yo'li bilan yig'ish, guruhlash, o'lchash, nazorat qilish va hisobotda aks ettirish tizimidir.

Sug'urta jarayonlari esa sug'urta tashkilotlarining majburiy va ixtiyoriy sug'urta qilishni ta'minlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan barcha turdagi faoliyatining yig'indisi[8].

“Buxgalterlar biznes yoki boshqa iqtisodiy subyektlarning ichida yoki tashqarisidagi qaror qabul qiluvchilarning boshqaruvni amalga oshirish uchun zarur moliyaviy ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojiga e'tibor qaratadi. Ular biznes va iqtisodiy faoliyatlarni boshqarishda kam sonli resurslardan muqobil foydalanishda asosli tanlovlarni amalga oshirish uchun boshqaruv organlarini ma'lumotlar bilan ta'minlaydigan muhim xizmatlarni ko'rsatadilar”[9].

Ralph S. Blanchard esa sug'urta kompaniyalarida yo'qotishlar va yo'qotishlarni tuzatish xarajatlarini hisobga olish, qayta sug'urtalash hisobi, qayta sug'urtalash sug'urtachilarning moliyaviy hisobotlariga ta'siri va zaxiralar hisobi kabi masalalarni AQSh qonunchiligi asosida amaliy ma'lumotlar asosida yoritib beradi, deb fikrlaydi [10].

Yuqoridagi olimlarning fikrlarini inobatga olgan holda, shuni aytish mumkinki, sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi me'yoriy huquqiy hujjatlari va faoliyatining xususiyatini inobatga olgan holda tubdan farq qilargan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot ishining metodologik asosi bo'lib, unda ma'lumotlarni to'plash, kuzatish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish va sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish o'ziga xos jihatlarni o'rganishdan iborat.

Tahlil va natijalar

Sug'urta tashkilotlarining buxgalteriya hisobi xo'jalik yurituvchi subyektlarnikidan tubdan farq qiladi. Birinchidan, Sug'urta tashkilotlarining faoliyat turi xizmat ko'rsatish hisoblanadi, ya'ni ular sug'urta xizmatlarini ko'rsatishadi. Shuning uchun sug'urta ishini yuritish xarajatlari 2000 schotda yuritiladi. Bundan tashqari, sug'urta tashkilotlari buxgalteriya hisobida sug'urta zaxiralari tushunchasi mavjud. Bu ular risk bilan bog'liq faoliyat yuritishi bilan bog'liq. Lekin, sug'urta tashkilotlarida faoliyatining xususiyatlarini hisobga oluvchi schotlar rejasiga oxirgi marta 2008 yilda o'zgartirishlar kiritilib qabul qilingan. Sug'urta tashkilotlarida sodir bo'ladigan operatsiyalarni schotlarning debet va kreditida aks ettirishda xuddi xo'jalik yurituvchi subyektlarniki kabi "T modeli" dan foydalaniladi.

Sug'urta zaxiralari-sug'urta qildiruvchi tomonidan so'm yoki xorijiy valyutada to'langan sug'urta mukofotlari hisobiga sug'urtalovchi tomonidan shakllantiriladigan hamda sug'urtalovchining balansida aktiv yoki majburiyat ko'rinishida hisobga olinadigan, sug'urta to'lovlari bo'yicha moliyaviy majburiyatlarni bajarish, zararlarni bartaraf etish bo'yicha xarajatlar va ogohlantirish chora-tadbirlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan mablag'lar [4].

Aytib o'tish kerak bo'lgan yana bir jihati, sug'urta mukofotlarini majburiyatlar sifatida 6280-schotda hisobga oladi.

M. Abduraimovning fikriga ko'ra, sug'urta tashkilotlari buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlaridan biri sug'urtalovchining faoliyat siklida inversiya xususiyati mavjudligi, bunda sug'urta xizmati uchun to'lov xizmat ko'rsatilmasdan oldin amalga oshiriladi va sug'urta hodisasi yuz bersa hamda asosli bo'lganda amalga oshiriladi [11]. Sug'urta tashkilotlari sug'urtalovchilaridan sug'urta badali sifatida olgan sug'urta mukofotlaridan avval zaxira shakllantiradi keyin ularni daromad sifatida tan oladi. Bunda ikki holatda sug'urta mukofotlarini daromad sifatida tan olinadi: birinchisi kutilyotgan hodisa ro'y bermasdan sug'urta shartnomasining muddati o'tganda, ikkinchisi esa kutilayotgan hodisa ro'y berib shartnomada ko'rsatilgan sug'urta to'loni to'lab berilgandan keyin ularni daromad sifatida tan oladi.

Sug'urta tashkilotlarining daromadlari [12]

Sug'urta faoliyatidan olingan	Sug'urta faoliyatidan olingan	Sug'urta tashkilotlarining boshqa
-------------------------------	-------------------------------	-----------------------------------

daromadlar	boshqa daromadlar	daromadlari
Sug'urta mukofotlari hisobiga shakllanadi	Investitsiya faoliyatidan olingan daromadlar hisobiga shakllanadi	-depo mukofotlar; -regress tartibida olingan summalar -asosiy fondler va boshqa aktivlarni sotishdan olingan daromadlar -o'qitish, maslahat berishdan olingan daromadlar -ijaradan olingan daromadlar -sug'urta zaxirasini qaytim summolari

Abduvohidov F. sug'urta tashkilotlarining xarajatlarini quyidagi guruhlariga bo'ladilar[13]:

1. Oldini olish chora-tadbirlari zaxirasiga qilinadigan ajratmalar;
2. Qayta sug'urtaga qabul qilingan sug'urta shartnomalari bo'yicha to'langan sug'urta qoplamalari;
3. Qayta sug'urtalash operatsiyalari bo'yicha to'langan komission mukofotlar va tanyemalar;
4. Ish yuritish xarajatlari
5. Sug'urtalovchining sug'urta va moliyaviy xo'jalik faoliyati bilan bog'liq boshqa xarajatlar.

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy natijalari quyidagicha bo'ladi: daromadlar + xarajatlar=foyda(zarar). Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi 1999 yil 5 fevraldagi "Mahsulot (ish,xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi 54-son Nizomga muvofiq shakllantiradi va faqat sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan tushgan sof tushumni aniqlashda "Sug'urta tashkilotlarining xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiradi.

Xulosa va takliflar

Sug'urta tashkilotlari hozirda iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Rivojlangan davlatlar iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib, u nafaqat sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi muassasa, balki strategik maqsadlarni ko'zlagan investitsion fond hamdir. Respublikamiz moliya bozoridagi sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi va to'lovga layoqatligini ta'minlash hamda milliy sug'urta bozoridan xalqaro moliya bozorlariga chiqishlarini mustahkamlash maqsadida qator islohotlar amalga oshirilmogda.

Fikrimizcha, milliy sug'urta tashkilotlarini xalqaro moliya sohasidagi ishtirokini ta'minlash, ularning investitsion jozibadorligini oshirish va xorijiy investorlar bilan

hamkorligini mustahkamlash kabi maqsadlarga erishish uchun qilinishi kerak bo'lgan vazifalarni quyidagicha belgilash lozim:

1. Investorlar uchun aniq va to'g'ri ma'lumotlarni shakllantirish va ularni ular tushunadigan "tilda" taqdim etish;

2. Xalqaro fond birjalarida ishtirok etishning asosiy sharti bu-ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish'

3. Sug'urta tashkilotlarini nafaqat moliyaviy hisobotlarini balki buxgalteriya hisobini ham BHXS va MHXSlari asosida takomillashtirish;

4. Milliy qonunchiligimizda sug'urta tashkilotlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish.

5. Sug'urta tashkilotlarining riskka asoslangan faoliyat yuritishini hisobga olgan holda ularda oqilona boshqaruvni ta'minlash uchun ichki auditni samarali tashkil qilish, bunda ichki auditorlarni risk tahlilini o'tkazishlarini hamda tashqi auditorlar bilan o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishlarini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.07.02.2017 y.

2. O'zbekiston Respublikasining 23.11.2021y. O'RQ-730-son "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni

3. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari O'RQ-404-son, 2016 yil 13 aprel.

4. Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risidagi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008 yil 20 noyabrdagi 107-son buyrug'i bilan tasdiqlangan

5. Ochilov I., Sultonov D. Sug'urta hisobi va hisoboti. O'quv qo'llanma.

6. Xolbekov R.O. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011y.-200b.

7. Temirov F.T. "Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishni takomillashtirish". "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali.6/2023, noyabr-dekabr(Nº00068).

8. Плахова Т.А. Учет страховых операций: Учебное пособие.М.: Финансовый университет,2010.136 с

9. Shafeeq Ababakr Bakhshi Accounting system and financial for insurance company. Master thesis. Bingol University, 2018.

10. Ralph S. Blanchard. Basic Insurance Accounting – Selected Topics., FCAS, MAAA, 1 July 2008. 25 p. https://www.casact.org/sites/default/files/old/studynotes_7us_blanchard_july2008.pdf.

11. Abduraimova M.A."Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari". Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi.Vol.4 Issue 02.pp 217-226.ISSN:2181-1865.

12. I.Abdurahmonov, M.Abduraimova, N.Abdullayeva; Sug'urta nazariyasi va amaliyoti: Darslik -T.: "Iqtisod-Moliya", 2020.-532b.

13. Abduvahidov F.T. "Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirish". "Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda sug'urtaning roli: tendensiyalar, muammolar va yechimlar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami, 2023 yil 16 noyabr.

14. www.stat.uz

15. www.imv.uz

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

